



## «GEOAXBOROT TIZIMINI AMALIYOTGA JORIY ETISH – O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR ORGANLARIDAGI ISLOXATLARNING ASOSIY YO‘NALISHIDA» QO‘LLASH

---

*Xayitov Nasim To‘lqin o‘g‘li*

*Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti*

*“Raqamli texnologiyalar” kafedrasida katta o‘qituvchisi*

*nasimhayitov96@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nomativ-huquqiy hujjatlar va ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil qilish asosida muallif, ilm-fan, zamonaviy axborot texnologiyalari va geoaxborot tizimlarining yutuqlarini amaliy faoliyatda joriy etishning asosiy yo‘nalishlarini, shuningdek, ularning natijalari haqida batafsil yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** ichki ishlar organlari, navbatchilik qismi, huquqbuzarliklar profilaktikasi, jamoat xavfsizligi, jinoyatchilikka qarshi kurashish, islohot, boshqaruv, geoaxborot tizimi, geoaxborot texnologiyasi, elektron hukumat, xavfsiz shahar, xavfsiz turizm, obod va xavfsiz mahalla, raqamli Toshkent, situatsion markaz, raqamlashtirish.

Ichki ishlar organlari faoliyatida geoaxborot tizimini joriy etish holatini tahlil qilishdan oldin «geoaxborot tizimi», «geoaxborot texnologiyalari», «elektron hukumat» kabi mazkur mavzuga oid o‘zaro bog‘liq asosiy tushunchalarni ko‘rib chiqish zarur.

Geoaxborot tizimi - (geografik axborot tizimi, GAT) - zarur ob‘ektlar to‘g‘risida fazoviy (geografik) ma‘lumotlarni va tegishli ma‘lumotlarni yig‘ish, saqlash, tahlil qilish va grafik vizualizatsiya qilish tizimi tushuniladi.

Geoaxborot tizimi tushunchasi tor ma‘noda — foydalanuvchilarning raqamli yer xaritasini va ob‘ektlar haqida qo‘shimcha ma‘lumotlarni qidirish, tahlil va tahrir qilish imkonini beruvchi vosita (dasturiy mahsulot) sifatida ishlatilishi mumkin.

Hududiy qamrov bo‘yicha geoaxborot tizimlari global (ing. global), subkontinental, milliy, ko‘pincha davlat maqomiga ega, mintaqaviy (regional), submintaqaviy, lokal yoki mahalliy (local) maqomiga ega. Ba‘zi hollarda bunday hududiy GAT Internetga ochiq kirish imkoniyatiga ega bo‘lishi mumkin va ular geoportallar deb ataladi.



Axborot simulyasiyasi mavzusiga ko'ra, shahar (urban GAT), yer osti boyliklari foydalanuvchilariga, tog'-geologik axborot tizimlari (TGAT), atrof-muhit va boshqalar; ular orasida maxsus nom, ayniqsa keng tarqalgan bo'lib, yer axborot tizimlarini tashkil etadi [1].

Tadqiqotlarimiz natijalari shuni ko'rsatadiki, geoinformatika va hisoblash geometriyasi so'nggi paytlarda kompyuter fanining eng dinamik sohalaridan biri hisoblanadi. Ularning yutuqlari dasturiy tizimlarning ikkita asosiy sinfida aniq shaklda qo'llaniladi: geoaxborot tizimlarida (GAT) va avtomatlashtirilgan loyixa tizimlarida (ALT). So'nggi yillarda ularni hal qilish uchun GAT va ALT imkoniyatlaridan foydalanishni talab qiladigan keng ko'lamlı vazifalarning paydo bo'lishi munosabati bilan yo'nalishlarni o'zaro yaqinlashtirish tendensiyasi kuzatildi [2].

Geografik axborot texnologiyalari ko'plab axborot texnologiyalarini o'zida mujassamlashtirgan va birlashtirgan texnologik kompleksdir. Ularning o'ziga xosligi fazoviy ma'lumotlarni qayta ishlashga yo'naltirilganligidadir. Fazoviy ma'lumotlar boshqa turdagi ma'lumotlar bilan birlashtirilishi mumkin, bu GATni nafaqat yer haqidagi fanlarda, balki ijtimoiy fanlar, iqtisod, kompyuter fanlari, tibbiyot, menejment va boshqalarda qo'llaniladigan ko'p maqsadli vosita sifatida belgilaydi [3]. Jahon amaliyoti ko'rsatganidek, bugungi kunda huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibini va xavfsizlikni ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashishda geoaxborot texnologiyalaridan foydalanish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Elektron hukumat - davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan davlat xizmatlari ko'rsatishga doir faoliyatini, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi [4].

Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, qonun ustuvorligini ta'minlash, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, huquqbuzarliklarning oldini olishdan iborat [5]. Bugungi kunda jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari tizimini isloh qilishning eng muhim yo'nalishlari ichki ishlar organlarining barcha bo'linmalari faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish [6], "respublika – viloyat – tuman – mahalla" tizimiga asoslangan yaxlit



boshqaruv va uzluksiz nazorat mexanizmlarini yaratish, ichki ishlar organlari va boshqa davlat organlari, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha faoliyatini samarali muvofiqlashtirish orqali mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, sohani to'liq raqamlashtirishga erishish ko'zda tutilgan [7].

Ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlili va rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ichki ishlar organlarining barcha soxaviy xizmatlari faoliyatini to'liq raqamlashtirish eng samarali yo'l hisoblanadi. Tadqiqotlarda qayd etilganidek, bugungi kunda davlat organlarining amaliy faoliyatida ilm-fan, zamonaviy texnologiyalar va axborot, ayniqsa, geoaxborot tizimlari yutuqlaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj juda yuqori. Bugungi kunda geoaxborot texnologiyalari yordamida turli muammolarni hal qilish zarurati mavjud. Axborot resurslarini shakllantirishning muhim manbai jadval ma'lumotlarini o'z ichiga olgan elektron hujjatlar (statistik, axborot-tahliliy va moliyaviy hisobotlar, me'yoriy hujjatlar va boshqalar) - dastlab mavzu yoki fazoviy ma'lumotlar bazasida taqdim etilgan ma'lumotlarni qayta ishlash natijasidir [8].

O'zbekiston Respublikasi qonunida [9] aniq belgilab qo'yilganki, ichki ishlar organlari qonun hujjatlariga muvofiq fan yutuqlari, zamonaviy texnologiyalar va axborot, ayniqsa, geografik axborot tizimlaridan: a) davlat xizmatlari ko'rsatish jarayoni va natijalari o'rganishda; b) arizalarni, boshqa hujjatlarni qabul qilish va ro'yxatdan o'tkazishda, shuningdek ularni ko'rib chiqish jarayonini kuzatishda; v) jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olishda; d) jinoyatlar, ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etilganlik holatlari, hodisalar, shu jumladan jamoat joylarida sodir bo'lgan holatlarni aniqlash, bartaraf etish, fosh qilish, tergov qilish va hujjatlashtirishda; ye) ichki ishlar organlari xodimlarining o'zlariga yuklatilgan vazifalarni bajarayotgan harakatlarini qayd etishda; j) jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash, favqulodda vaziyatlarning oldini olish, shuningdek ularning oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etuvchi kuchlar va vositalarning o'zaro hamkorligini boshqarish va muvofiqlashtirishda; z) davlat sirlarini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlarning himoya qilinishini ta'minlashda foydalanadi.

Qonun talablarini hayotga tatbiq etish hamda fan, zamonaviy texnologiyalar va axborot, ayniqsa, geografik axborot tizimlari yutuqlarini ichki ishlar organlari faoliyatiga joriy etish chora-tadbirlarini amalga oshirishni samarali tashkil etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi aloqa bo'limi negizida,



Axborot texnologiyalari, aloqa va axborotni himoyalash boshqarmasi, shuningdek uning hududiy bo‘linmalari tashkil etildi.

Harakatlar strategiyasiga muvofiq ichki ishlar organlari tizimini tubdan isloh qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturidan kelib chiqib, huquqbuzarliklar profilaktikasi [11], tergov [12], patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash [13], migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish [14], yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmalari [15], jazoni ijro etish tizimlari [16] faoliyatiga zamonaviy ilmiy-texnika vositalari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Ta’kidlash joizki, huquqbuzarliklar, jinoyatlar, fosh etilmagan jinoyatlar holatini kompleks tahlil qilish va faoliyatni rejalashtirishni tashkil etish bo‘yicha axborot tizimlari, dasturiy mahsulotlar va ma’lumotlar bazalari ishlab chiqilib, bosqichma-bosqich joriy etildi; profilaktika va qidiruv ishlarini olib borish; hisobotlarni avtomatlashtirish; vazirliklar va idoralarning axborot resurslari bilan o‘zaro hamkorlikning idoralararo tizimini yaratish; ichki ishlar organlarida kadrlarni tanlash, joylashtirish va almashtirish yaxlit tizimi yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekistonda geoaxborot tizimlari va texnologiyalari «elektron hukumat», «xavfsiz shahar» [19] yagona dasturi loyihalarini amalga oshirish va rivojlantirishda samarali qo‘llanilmoqda, qolaversa «xavfsiz turizm» konsepsiyasi [20], «obod va xavfsiz mahalla» [21], «raqamli Toshkent» kompleks dasturi [22] va boshqalar. Masalan, O‘zbekistonni rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasiga muvofiq, loyihani bosqichma-bosqich amalga oshirishni nazarda tutuvchi «xavfsiz shahar» dasturiy kompleksini yaratish va yanada rivojlantirish konsepsiyasi: a) birinchi bosqich eksperimental asosda (2017 — 2019 y.y.) — Toshkent shahri bo‘yicha jinoyat va hodisalar to‘g‘risidagi xabarlarini qabul qilish va ro‘yxatga olishning videokuzatuv, video-tahlil tizimlari va avtomatlashtirilgan axborot tizimi bilan

«xavfsiz shahar» kompleksini yaratish; b) ikkinchi bosqich — QR, viloyat markazlari va yirik shaharlarida (2019 — 2021 yy.); v) uchinchi bosqich (2021-2023 y.y.) — O‘zbekiston Respublikasi hududida «xavfsiz shahar» [23] kompleksining joriy etilishini o‘z ichiga olgan.

Ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar o‘zining ijobiy samarasini bermoqda. So‘zimizning isboti bo‘lib, Andijon viloyati profilaktika inspektorlari maxsus dastur yordamida boshqarmaning navbatchilk qismi bilan bog‘langan xizmat smartfonlari va elektron planshetlar bilan ta‘minlandi, bu esa o‘z navbatida turli axborotlarni tezkor almashish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.



Navoiy viloyati 2-son ichki ishlar bo‘limida «Profinspektor» dasturi yordamida kriminogen vaziyatni tahlil qilish va xizmat ko‘rsatilayotgan hududlardagi huquqbuzarliklarning geoaxborot xaritalarini shakllantirish imkoniyatlari vujudga keldi [24]. Bundan tashqari, Jizzax shahar 2-sonli IIB bo‘limida «xavfsiz shahar» situatsion markazi tashkil etildi. Qolaversa Jizzax viloyati ichki ishlar boshqarmasi matbuot guruhi Jizzax viloyati ichki ishlar boshqarmasi axborot multimedia guruhiga qayta tashkil etildi va ushbu gurux 3 shtat asosida faoliyat yuritishi ko‘rsatilgan, shuningdek ularning asosiy vasifasi sifatida ichki ishlar organlarida olib borilayotgan ishlar yuzasidan batafsil ravishda ijtimoiy tarmoq va tele- va radio efirlar olib borilishi belgilandi [25].

Jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlashga jalb etilgan kuch va vositalar faoliyati ustidan samarali boshqaruv va uzluksiz nazoratni ta‘minlash maqsadida, bosqichma-bosqich situatsion markazlar tashkil etilmoqda. Situatsion markazi – asosan monitoring va nazorat qilish kabi vazifalarni bajarib, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarni modellashtirish, prognoz va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun mo‘ljallangan zamonaviy dasturiy-texnik vositalar va telekommunikatsiya uskunalari bilan jihozlangan yuqori texnologiyali kompleks.

Hozirgi vaqtda Jizzax IT Park filialida turli xizmatlar ko‘rsatuvchi bir qator rezidentlar ro‘yxatga olindi. Jumladan: PE «Alitech Website Solutions» — veb-saytlar yaratish bo‘yicha xizmatlar OOO «Include» — S-Zone talabalarni videokuzatuv orqali tekshirish, «Medcash» - sog‘liqni saqlash tizimlarini avtomatlashtirish, CHP «Uztan Media» - domenlarni ro‘yxatga olish va veb-saytlar nashr qilish bo‘yicha xizmatlar, PE «My Way Group» - dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish, «MY GRUZ» - yuklarni yetkazib berish kabi xizmatlar joy olgan [27].

"Xavfsiz shahar" va "xavfsiz turizm" konsepsiyasini amalga oshirish natijasida Samarqand shahrida geoaxborot xaritasi ishlab chiqilgan bo‘lib, u orqali na faqat kelib tushgan qo‘ng‘iroqni kuzatib borish, balki o‘sha xonadonda istiqomat qilayotgan barcha narsalarni ham bilib olish imkoniyati mavjud. Bundan tashqari, fotobazada yuzni aniqlash tizimi ishga tushirildi [28].

O‘zbekiston ichki ishlar organlari faoliyatiga bosqichma-bosqich zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etilmoqda, ichki ishlar bo‘limlarini barcha mahalla huquq-tartibot maskanlari bilan bog‘lovchi yagona optik tolali tarmoq yaratilmoqda. Shunday qilib, «xavfsiz poytaxt» konsepsiyasini amalga oshirish natijasida 2018-yil 1-iyuldan Toshkent shahrida [29] jamoat tartibini ta‘minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish



bo'yicha «xavfsiz shahar» situatsion boshqaruv markazi tashkil etildi. Markaz geoaxborot texnologiyalaridan foydalangan holda yo'l harakati xavfsizligi, patrul-post xizmati, huquqbuzarliklar profilaktikasi va boshqa xizmatlar faoliyatini muvofiqlashtiradi. Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va Toshkent shahridagi Inha universitetlarida tizim uchun tegishli kadrlar tayyorlanishi yo'lga qo'yilgan [30].

Toshkentda "Raqamli Toshkent" kompleks dasturini amalga oshirish jarayonida vaziyatlarning real vaqt rejimida kuzatilishi va tezkor javob berishi mumkin bo'lgan situatsion markaz paydo bo'ladi. "Raqamli Toshkent" situatsion boshqaruv markazi shahar hayoti haqidagi barcha raqamli ma'lumotlarni markazlashtirish va mavjud axborot asosida turli vaziyatlar bo'yicha qarorlar qabul qilish joyi bo'lib xizmat qiladi [31].

Ichki ishlar organlari tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha «yo'l xaritasi»ga muvofiq Ichki ishlar organlari faoliyatiga zamonaviy raqamli va axborot texnologiyalarini tatbiq etish yo'nalishida ichki ishlar organlari tizimiga axborot texnologiyalarni joriy etish konsepsiyasini ishlab chiqish va tasdiqlash, shuningdek unda ichki ishlar organlari faoliyatini raqamlashtirish soha va yo'nalishlarini,

shuningdek axborot texnologiyalarni to'liq joriy etish bosqichlarini belgilash nazarda tutilmoqda. Bu borada quyidagi aniq chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilandi:

a) mahkumlarning «elektron nazorati» ni ta'minlovchi axborot texnologiyalarini joriy etgan holda jazoni ijro etish muassasalari faoliyatini bosqichma-bosqich raqamlashtirish;

b) mahalliy tarmoqlarni takomillashtirish va yagona himoyalangan korporativ tarmoq orqali ichki ishlar organlarini raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish uchun telekommunikatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish;

v) zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, moddiy dalillar bo'yicha avtomatlashtirilgan axborot-qidiruv tizimlarini yaratish, shuningdek, kriminalistik identifikatsiya tizimlarining faoliyatini muvofiqlashtirish orqali ekspert-kriminalistik faoliyatni bosqichma-bosqich raqamlashtirish;

g) probatsiya xizmati hisobiga olingan shaxslar ustidan masofadan nazorat qilishni ta'minlovchi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali xizmat faoliyatini raqamlashtirish;

d) axborot texnologiyalarini joriy etish orqali davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati tomonidan davlat xizmatlarini ko'rsatishning yangi tartibini joriy etish;

e) ichki ishlar vazirligining huquqiy statistika va tezkor-hisob ma'lumotlar



markazi faoliyatini axborot tizimlarini modernizatsiya qilish, faoliyat arxivini raqamlashtirish va axborot texnologiyalarini joriy etish bilan bosqichma-bosqich raqamlashtirish;

j) mazkur faoliyat samaradorligini oshirish va ortiqcha yukni kamaytirishga qaratilgan huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalari faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish;

z) axborot texnologiyalarini joriy etish orqali ichki ishlar organlari (situatsion boshqaruv tizimi) kuchlari va vositalarini boshqarishning sifat jihatidan yangi amaliyotini bosqichma-bosqich joriy etish [32].

Xulosa qilib aytganda, ichki ishlar organlari sohasiga zamonaviy axborot texnologiyalari va geoaxborot tizimlarini joriy etish bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek, sohaviy xizmatlar faoliyatini to‘liq raqamlashtirish huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat xavfsizligi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini ta’minlash garovi bo‘lib xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Geoinformatsionnaya sistema // <https://ru.wikipedia.org/wiki>
2. Geoinformatsionnaya sistema GrafIn 4. 0 i yee primeneniya <https://cyberleninka.ru/article/n/geoinformatsionnaya-sistema-grafin-4-0-i-ee-primeneniya>
3. Geinformatsionnye texnologii <https://ru.wikipedia.org/wiki>
4. O‘zbekiston Respublikasining 2015 yil 09 dekabrda «Elektron hukumat to‘g‘risida» gi Qonuni // <https://lex.uz/docs/2833855>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26-martdagi «Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi PF-6196-sonli Farmoni // <https://lex.uz/docs/2833855>;
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5-oktabrdagi «Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi PF-6079-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/2833855>;
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 18-fevraldagi farmoni 2020 “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi PF-5938-son



<https://lex.uz/docs/4740345>

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 apreldagi «Ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini ta’minlash, fuqarolarning huquqlari, yerkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish uchun ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi PF-5005-sonli farmoni // <https://lex.uz/docs/3159827>

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlarito‘g‘risida» gi 2833-sonli Qarori <https://lex.uz/docs/3141186>

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 avgustdagi «Axborot- kommunikatsiya texnologiyalari sohasida loyiha boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi PQ-3245-son Qarori <https://lex.uz/docs/3324016>

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi «ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi PQ-2896-son qarori <https://lex.uz/docs/3180665>